

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA GENDER MASALALARINI IFODALANISHI

Hasanova Dilfuza Odilovna

Qo'qon davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti filologiya
fanlari doktori (Dsc) Tel:+998915300550

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'tkir Hoshimov asarlarida gender lingvistikasi masalasi sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Yozuvchi asarlarida erkak va ayol obrazlari nutqining lingvistik xususiyatlari, ularning ijtimoiy rollari hamda kommunikativ strategiyalari tadqiq etildi. Shuningdek, gender stereotiplari, nutqiy modellarning shakllanishi va milliy mentalitet bilan bog'liq jihatlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida O'tkir Hoshimov asarlari gender lingvistikasi uchun muhim ilmiy manba ekanligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: gender lingvistikasi, sotsiolingvistika, badiiy nutq, gender stereotiplari, ayol nutqi, erkak nutqi, personaj nutqi.

Аннотация: В данной статье с социолингвистической точки зрения анализируется проблема гендерной лингвистики в произведениях Откира Хошимова. Исследуются лингвистические особенности речи мужских и женских образов в произведениях писателя, их социальные роли и коммуникативные стратегии. Также анализируются гендерные стереотипы, формирование речевых моделей и аспекты, связанные с национальным менталитетом. В результате исследования обосновано, что произведения Откира Хошимова являются важным научным источником для гендерной лингвистики.

Ключевые слова: гендерная лингвистика, социолингвистика, художественная речь, гендерные стереотипы, женская речь, мужская речь, речь персонажей.

Annotation: This article analyzes gender linguistics issues in the works of O'tkir Hoshimov from a sociolinguistic perspective. The linguistic features of male and female characters' speech, their social roles, and communicative strategies in the writer's works are examined. Gender stereotypes, the formation of speech models, and aspects related to national mentality are also analyzed. The study concludes that the works of O'tkir Hoshimov serve as an important scientific source for gender linguistics.

Keywords: gender linguistics, sociolinguistics, artistic speech, gender stereotypes, female speech, male speech, character speech.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda gender omili nutqning ijtimoiy va madaniy xoslanishini belgilovchi muhim kategoriyalardan biri sifatida qaralmoqda. Gender bugungi kunda ko'plab ilmiy yo'nalishlarda tadqiq etilayotgan muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. Gender tushunchasi biologik jins bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy omillarni ham o'z ichiga oladi.

Shu sababli gender lingvistikasi nutqning ijtimoiy xoslanishini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, tilshunoslik sohasida u zamonaviy lingvistikaning sotsiolingvistika yo'nalishiga mansub gender tilshunoslikning markaziy o'rganish obyekti sifatida qaraladi.

Gender lingvistikasi erkak va ayol nutqi o'rtasidagi farqlarni aniqlash, ularning kommunikativ strategiyalarini o'rganish hamda ijtimoiy rollarning nutqda ifodalanishini tahlil qilishga qaratilgan Britaniyalik olim, sotsiologiya va feministik nazariya sohasidagi taniqli mutaxassis R.Gill o'zining "Gender and The Media" (Gender va Media) asarida: "Biz qatlamlarga bo'lingan dunyoda yashayapmiz. Ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, etnik kelib chiqishi, sinfi, yoshi, jismoniy qobiliyati, jinsi, yashash joyi va bu toifalar o'rtasida imtiyozlar va qiyinchiliklar tengsiz taqsimlangan²⁴", – deb yozadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shaxs sotsial belgisini ifodalovchi leksik birliklar sirasida gender, ya'ni jins nuqtayi nazaridan tavsiflovchi so'zlar ham o'zbek tilining leksikasida o'ziga xos ma'no va vazifasi, lisoniy–ijtimoiy xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, gender bir vaqtning o'zida shaxsning ijtimoiy–madaniy shartlashgan erkaklik va ayollik xususiyatlarini o'zlashtirish jarayoni hamda natijasini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etiladi.

Shunga ko'ra, gender deganda jinsning ijtimoiy–madaniy aspektini ifodalovchi tushunchani nazarda tutish maqsadga muvofiq.²⁵

Amerikalik tadqiqotchi J.Koatesning ta'kidlashicha, gender tadqiqotlari bilan shug'ullanadigan sotsiolingvistlar erkaklar va ayollarning nutqini submadaniyat sifatida ularga xos belgilar bilan tavsiflangan maxsus ijtimoiy guruhlar sifatida qabul qiladilar²⁶.

Shunday qilib, sotsiolingvistlar so'zlovchining nutq xatti–harakati vaqtga, muhitga, vaziyatga qarab qanday o'zgarishi va turli jins, yosh, ijtimoiy va irqiy mansublikdagi so'zlovchilarning nutqi qanday farqlanishi bilan qiziqadi. Sotsiolingvist–genderologlarning asosiy tadqiqot obyekti – insonning biologik va ijtimoiy jinsi uni qanday aks ettirishi va jamiyatning boshqa a'zolari bilan muloqotiga qay darajada ta'sir qilishidir²⁷.

O'tkir Hoshimov asarlari inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va oilaviy qadriyatlarni chuqur yoritishi bilan ajralib turadi. Yozuvchi asarlarida erkak va ayol obrazlari nutqi tabiiyligi va hayotiyliigi bilan diqqatga sazovor. Aynan shu jihatlari bilan yozuvchi asarlari gender lingvistikasi nuqtayi nazaridan tahlil qilish uchun muhim ilmiy material bo'la oladi. Yozuvchi asarlarida ayol obrazlari nutqi, asosan, hissiylik, muloyimlik va mehribonlik bilan xarakterlanadi.

²⁴ Gill R. Gender and the media. — Cambridge: Polity Press, 2007. – P. 7.

²⁵ Hasanova D. O'zbek tilida shaxs sotsial belgilarini ifodalash omillari, vositalari va usullari. (monografiya). — Qo'qon, 2019. – B. 114.

²⁶ Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language, New York: Routledge, 2013. – P. 48.

²⁷ Yusupova G. Tilshunoslikda gender tadqiqotining nazariy asoslari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 2 (49). — B. 18–37. <https://doi.org/10.36078/1683267865>

Ayol personajlar nutqida erkalash shakllari, hurmat bildiruvchi birliklar va yumshoq ohang ustunlik qiladi. Bu holat ayolning jamiyatdagi ijtimoiy roli bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Masalan, yozuvchi asarlarida ona obrazlari nutqi orqali mehr, g'amxo'rlik va sabr kabi sifatlar ifodalanadi. Bu nutqiy birliklar ayolning ijtimoiy vazifalarini ochib beradi. Ayol nutqida so'roq gaplar, iltimos shakllari va yumshoq intonatsiya ko'proq qo'llanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Robin Lakoffning gender lingvistikasi haqidagi nazariyasiga ko'ra, ayollar va erkaklar nutqi ijtimoiy rollar ta'sirida shakllanadi. Ayollar nutqi ko'proq hissiylik, muloyimlik, iltijo bilan xarakterlansa, erkaklar nutqida qat'iylik, hukm va mantiqiylik ustun bo'ladi. Ushbu farqlar badiiy matnda personajlarning gender xususiyatlarini ochishda muhim lingvistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shunday holatlarni O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridan olingan parcha misolida ko'rishimiz mumkin:

– Bolam! Jon bolam, – dedim iltijo qilib.

– Kimsanni sen kutsang, men kutmayapmanmi! O'z bolamning ko'ziga o'zim cho'p solgandan ko'ra o'lganim yaxshimasmi! Nima qilay, jon qizim, ilojim qancha²⁸!

Keltirilgan parchada ayol nutqiga xos bo'lgan bir qator leksik birliklar kuzatiladi. Masalan, erkalash va yaqinlik ifodalovchi "bolam, jon bolam, jon qizim" kabi birliklar. Bu birliklar ayol nutqining emotsional va munosabatga yo'naltirilgan xususiyatini ko'rsatadi.

Tadqiqitlarga qaraganda, ayollar suhbatda yaqinlikni mustahkamlovchi vositalarni ko'proq qo'llaydi. Parchada Qora amma nutqidagi iltijo qilib aytilgan "o'lganim yaxshimasmi" iborasi nutqda kuchli ichki kechinma, iztirob va ruhiy og'irlikni aks ettiradi. Ayollar nutqida hissiyotning ochiq ifodalanishi gender nutqining muhim belgilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ayol nutqida "O'z bolamning ko'ziga o'zim cho'p solgandan ko'ra o'lganim yaxshimasmi?" ritorik so'roq gapi qo'llangan. Bu so'roq javob talab qilmaydi, balki ichki kechinma va ayanchni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Gapdagi frazeologik birlik ham ayollar nutqiga xos birlik sanalib, nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Dialogdagi "Nima qilay, jon qizim, ilojim qancha?" so'zlari orqali munozarani yumshatish mehr va achinish orqali ta'sir o'tkazish, o'zini oqlash va tushunilishga intilish, hissiy yaqinlikni tiklash maqsad qilinadi.

Ayol qahramon nutqi leksik jihatdan hissiyotga boy, sintaktik jihatdan yumshoq va ritorik, funksional jihatdan munosabatni saqlashga yo'naltirilgan. Bu esa O'tkir Hoshimov asarlarida ayol obrazlari nutqi gender lingvistikasi nuqtayi nazaridan chuqur va realistik yoritilganini ko'rsatadi. Endi xuddi shu asardagi erkak jinsiga mansub shaxsning nutqini tahlil qilamiz:

– Qusayotgan emishlar. Menga desa qon qusmaysanmi! Xamirturish ichasanmi, balo qilasanmi, nima bo'lgandayam o'zing epla²⁹!

²⁸ O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent, 2016. – B. 53.

Ushbu parcha badiiy matnda genderga xos nutqiy xulq-atvorning yaqqol namunasini aks ettiradi. Nutq subyekti tomonidan qo'llanilgan leksik birliklar, sintaktik tuzilma hamda pragmatik yo'nalish so'zlovchining jinsiy-madaniy identifikatsiyasini, ijtimoiy mavqeyini va kommunikativ ustunligini ko'rsatadi. Gender lingvistikasi nuqtayi nazaridan bu kabi nutq birliklari erkak va ayol nutqi o'rtasidagi farqlarni ochib berishda muhim empirik material vazifasini bajaradi. Avvalo, parchadagi nutq keskin, buyruqboz va empatiyadan xoli tarzda qurilgan. "Menga desa qon qusmaysanmi!", "nima bo'lgandayam o'zing epla!" kabi gaplar so'zlovchining adresat holatiga befarqligini, hissiy sovuqqonlikni va ijtimoiy ustunlik pozitsiyasini bildiradi. Gender lingvistik tadqiqotlarda bunday nutq ko'pincha erkaklarga xos kommunikativ model sifatida tavsiflanadi. Chunki mazkur modelda muloqotning asosiy maqsadi hissiy yaqinlik emas, balki buyruq berish, mas'uliyatni yuklash va masofani saqlashdan iborat bo'ladi.

...Xotin-qizlar nutqining individual xususiyatlarini "voy" undovining qo'llanishi asosida ham oydinlashtirish mumkin: ma'lum bo'lishicha, "voy" undovi o'ndan ortiq ma'no nozikliklarini ifodalaydi. Sevinish, erkalash, achinish, qo'rqish, havas, sarosimalanish, koyish, alam singari qator ichki holatlarning yuzaga chiqishida bu so'z ma'lum darajada ahamiyatga ega³⁰. Xuddi shunday holatni O'. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridagi Qora amma nutqida uchramiz:

Voy amming aylansin! Voy amming o'rgilsin sendan! – U pildirab kelib meni bag'riga bosdi. Dimog'imga qatiq hidi urildi, yuzimdan o'payotgan-da oppoq sochini uchiga osib olgan so'lkavoy cho'lpilari bir-biriga urilib jiringlab ketdi.

– "Qora amma", tangangizni o'ynasam maylimi?

– Voy tanga sendan aylansin³¹!

Ushbu parchada ayol obraz nutqi va unga xos bo'lgan til birliklari orqali genderga xos lingvistik xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Ayol nutqining asosiy belgilaridan biri bo'lgan hissiylik, mehr-muhabbatga boylik va munosabatga yo'naltirilganlik ushbu matnda yetakchi o'rin egallagan. Dialogda ayol obraz nutqida affektiv mazmunga ega bo'lgan undovlar va erkalash birliklari faol qo'llangan. Jumladan, "voy" undovi takroriy qo'llanish orqali nutqning kuchli emotsional fonini yaratadi.

"Aylansin", "o'rgilsin" kabi leksik birliklar esa ayol nutqiga xos bo'lgan mehr, fidoiylik va yaqinlikni ifodalovchi semantik yuklama bilan ajralib turadi. Ushbu birliklar nutqning axborot berishdan ko'ra, hissiy ta'sir o'tkazishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, ayol obraz nutqida qarindoshlik va yaqinlikni bildiruvchi "ammang" kabi birliklarning ishlatilishi muloqotning ijtimoiy-ruhiy asosini mustahkamlab, suhbatdosh bilan samimiy aloqa o'rnatishga qaratilganini anglatadi. Bu holat ayol nutqining o'ziga xos semantik maydonini belgilaydi

²⁹ O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent, 2016. – B. 367

³⁰ Исқандарова Ш. Ўзбек нутқ одобининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. Самарқанд, 1993. – С. 19.

³¹ O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent, 2016. – B. 27.

Erkak obrazlari nutqida esa qat'iylik, buyruq ohangi va bevositalik ustunlik qiladi. Erkak personajlar nutqida qisqa va aniq gaplar, buyruq shakllari ko'proq uchraydi. Bu esa erkakning jamiyatdagi yetakchilik roli bilan bog'liq. Shuningdek, erkak nutqida mas'uliyat va boquvchilik roli ham aks etadi. Yozuvchi asarlarida erkak personajlar oilani ta'minlash, qarindoshlik munosabatlarini boshqarish kabi vazifalarni nutq orqali ifodalaydi. Bu holat milliy mentalitet bilan chambarchas bog'liq. Gender farqlari faqat leksik darajada emas, balki pragmatik darajada ham namoyon bo'ladi. Ayol nutqi ko'proq empatiyaga yo'naltirilgan bo'lsa, erkak nutqi qaror chiqarish va boshqaruvga qaratilgan. Yozuvchi asarlarida gender stereotiplari ham aniq ko'zga tashlanadi. Masalan, ayol obrazlari ko'proq oilaviy muhit bilan bog'liq holda tasvirlansa, erkak obrazlari ijtimoiy faoliyat bilan bog'liq holda beriladi. Bu esa jamiyatda shakllangan an'anaviy gender rollarini aks ettiradi.

O'tkir Hoshimov asarlarida gender lingvistikasi masalasi milliy mentalitet bilan ham chambarchas bog'liq.

Ayol nutqida hurmat, muloyimlik va sabr kabi xususiyatlar ustun bo'lsa, erkak nutqida qat'iylik va mas'uliyat ustunlik qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'tkir Hoshimov asarlarida gender lingvistikasi muhim o'rin egallaydi. Yozuvchi personajlar nutqi orqali jamiyatdagi gender munosabatlarini badiiy mahorat bilan aks ettirgan.

XULOSA

O'tkir Hoshimov asarlarida gender lingvistikasi masalasi muhim sotsiolingvistik komponent sifatida namoyon bo'ladi.

Ayol va erkak personajlar nutqida kuzatilgan farqlar jamiyatdagi ijtimoiy rollar bilan belgilanadi.

Yozuvchi asarlarida gender stereotiplari milliy mentalitet bilan bog'liq holda ifodalangan.

Ayol va erkak personajlar nutqida farqlar nafaqat leksik va sintaktik darajada, balki pragmatik jihatdan ham namoyon bo'lib, ayol nutqi empatiya va munosabatni saqlashga, erkak nutqi esa nazorat va qaror chiqarishga yo'naltirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'tkir Hoshimov asarlari gender lingvistikasi yo'nalishida muhim ilmiy manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gill R. Gender and the media. – Cambridge: Polity Press, 2007. – P. 7.
2. Hasanova D. O'zbek tilida shaxs sotsial belgilarini ifodalash omillari, vositalari va usullari. (monografiya). – Qo'qon, 2019. – B. 114.
3. Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language, New York: Routledge, 2013. – P. 48.

4. Yusupova G. Tilshunoslikda gender tadqiqining nazariy asoslari // O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2023. –№ 2 (49). – B. 18-37.<https://doi.org/10.36078/1683267865>
5. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одобининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. Самарқанд, 1993. – С. 19.
6. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent, 2016. – B. 53.